Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODELI (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Sherali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI	1310
Mangliyev Bexzod To'raboy o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI	1321
I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova	



MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNINI

I.A.Bakiyeva

prof.v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Mehnat iqtisodiyoti kafedrası"

S.A.Bozorova

dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Mehnat iqtisodiyoti kafedrası"

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlarini tartibga solishda raqamli platformalarning o'рни va ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi raqamli platformalarning zamonaviy mehnat munosabatlariga ta'sirini baholash hamda ularni institutsional va huquqiy jihatdan tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, statistik va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar raqamli platformalar mehnat munosabatlarining an'anaviy modelini transformatsiya qilib, ish beruvchi, ijrochi va raqamli platforma o'rtasidagi yangi hamkorlik munosabatlarini shakllantirayotganini ko'rsatdi. Tadqiqotda platforma bandligi mehnat bozori moslashuvchanligini oshirishi, bandlik imkoniyatlarini kengaytirishi hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi aniqlandi. Shu bilan birga, platformalar orqali mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va huquqiy maqom bilan bog'liq muammolar mavjudligi asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida raqamli platforma mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini moslashtirish va raqamli bandlikni rasmiy iqtisodiyotga integratsiya qilish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Maqola natijalari mehnat bozorini raqamlashtirish sharoitida davlat mehnat siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli platformalar, mehnat munosabatlari, platforma bandligi, gig-iqtisodiyot, masofaviy ish, mehnat bozori transformatsiyasi, algoritmli boshqaruv, raqamli bandlik, mehnatni tartibga solish.

Abstract. This article examines the role and significance of digital platforms in regulating labor relations within the context of the digital economy. The aim of the study is to evaluate the impact of digital platforms on contemporary labor relations and to identify the priority directions for their institutional and legal regulation. The research employed a systematic approach, comparative analysis, normative-legal analysis, statistical methods, and content analysis.

The results show that digital platforms are transforming the traditional model of labor relations, creating new forms of interaction between employers, workers, and digital platforms. The study found that platform-based employment enhances labor market flexibility, expands employment opportunities, and stimulates economic activity. At the same time, the implementation of labor activities through platforms raises issues related to labor rights, social protection, and the legal status of workers.

Based on the study's findings, practical recommendations were developed for the legal regulation of digital employment, adaptation of social protection mechanisms, and integration of platform-based employment into the formal economy. The results of this article have scientific and practical significance for improving state labor policy in the context of labor market digitalization.

Key words: digital economy, digital platforms, labor relations, platform-based employment, gig economy, remote work, labor market transformation, algorithmic management, digital employment, labor regulation.



Аннотация. В данной статье исследована роль и значение цифровых платформ в регулировании трудовых отношений в условиях цифровой экономики. Цель исследования заключается в оценке влияния цифровых платформ на современные трудовые отношения, а также в выявлении приоритетных направлений их институционального и правового регулирования. В процессе исследования использовались системный подход, сравнительный анализ, нормативно-правовой анализ, статистический и контент-анализ.

Полученные результаты показали, что цифровые платформы трансформируют традиционную модель трудовых отношений, формируя новые формы взаимодействия между работодателем, исполнителем и цифровой платформой. Исследование выявило, что платформенная занятость повышает гибкость трудового рынка, расширяет возможности трудоустройства и стимулирует экономическую активность. Вместе с тем, в процессе осуществления трудовой деятельности через платформы возникают проблемы, связанные с трудовыми правами, социальной защитой и правовым статусом работников.

На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по правовому регулированию цифровой занятости, адаптации механизмов социальной защиты и интеграции платформенной занятости в официальную экономику. Результаты статьи имеют научно-практическое значение для совершенствования государственной политики занятости в условиях цифровизации трудового рынка.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые платформы, трудовые отношения, платформенная занятость, гиг-экономика, удалённая работа, трансформация трудового рынка, алгоритмическое управление, цифровая занятость, регулирование труда.

INTRODUCTION

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadal sur'atlarda rivojlanishi mehnat bozorining shakllanishi va faoliyat yuritish mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari, xususan, raqamli platformalar asosida tashkil etilgan mehnat munosabatlari vujudga kelmoqda. Bugungi kunda raqamli platformalar orqali mehnat faoliyatini amalga oshirish global mehnat bozorining muhim tarkibiy qismiga aylanib, bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli platformalar ish beruvchi va ijrochi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish, mehnat jarayonlarini masofadan tashkil etish hamda xizmatlar almashinuvini avtomatlashtirish imkonini bermokda. Natijada mehnat munosabatlarining an'anaviy modeli transformatsiyaga uchrab, doimiy ish joyiga asoslangan bandlik o'rnini qisqa muddatli kontraktlar, mustaqil ijrochilik va gibrid mehnat shakllari egallamoqda. Bu esa mehnat munosabatlarini huquqiy va institutsional jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, platforma iqtisodiyotining kengayishi mehnat munosabatlarini tartibga solish sohasida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, platformalar orqali faoliyat yurituvchi shaxslarning huquqiy maqomi, mehnat huquqlari kafolatlari, ijtimoiy himoya tizimiga qamrov darajasi hamda soliq munosabatlarini belgilash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Amaldagi mehnat qonunchiligi ko'p hollarda an'anaviy mehnat munosabatlariga yo'naltirilgan bo'lib, raqamli mehnat formatlarini to'liq qamrab olmayapti.

Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan sharoitda O'zbekistonda ham onlayn xizmatlar bozori, masofaviy ish shakllari va platforma asosidagi bandlik turlari kengayib bormoqda. Bu esa mehnat munosabatlarini zamonaviy raqamli muhit talablari asosida tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayonida raqamli platformalarning o'рни va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning mehnat bozoriga ta'sirini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun raqamli platformalar tushunchasini nazariy jihatdan asoslash, platforma bandligining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, xalqaro tajribani o'rganish hamda milliy mehnat bozorini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti sifatida raqamli iqtisodiyot sharoitida shakllanayotgan mehnat bozori munosabatlari tanlangan bo'lsa, tadqiqot predmetini raqamli platformalar orqali yuzaga keladigan mehnat munosabatlarini tartibga solish mexanizmlari tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli platformalar mehnat bozori transformatsiyasi va mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi ta'siri haqidagi xalqaro ilmiy adabiyotlar ma'lumotlarning ekonomik, institutsional va ijtimoiy jihatlarini keng qamrab olgan. Xalqaro iqtisodchi olimlar raqamli platformalarning mehnat bozorida rolini iqtisodiy siyosat va amaliyot nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishgan.



Birinchi navbatda, Gustavo R. Pilatti va hamkasblari tomonidan amalga oshirilgan sistematik adabiyotlar tahlili raqamli platformalarning global mehnat bozorida iqtisodiy dinamikaga ta'siriga alohida diqqat qaratgan. Ular raqamli platformalar ish bilan ta'minlashni soddalashtirib, ishchilarga moslashuvchan va qisqa muddatli ish imkoniyatlarini yaratadigan ish joylarini tashkil qilishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, ular platformalar va ishchilar o'rtasidagi kuch muvozanati va algoritmli boshqaruvning ishchilar mustaqilligiga ta'siri kabi murakkab omillarni ham muhokama qilgan, bu raqamli platformalarning iqtisodiy afzalliklari bilan birga haddin tashqari iqtisodiy xavflarini ham ochib beradi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ham raqamli platformalarning mehnat bozorida xususiyatlari bo'yicha ilmiy tahlillar bergan. Xususan, ILOning hisobotlarida raqamli mehnat platformalari ishchilar uchun yangi bandlik imkoniyatlarini yaratayotgani, lekin ko'p hollarda ular an'anaviy mehnat huquqlari va ijtimoiy himoya tizimi bilan ta'minlanmagani ta'kidlangan. Bu holat global darajada raqamli platformalarning ikki tomonlama ta'sirini ko'rsatadi: bir tomondan iqtisodiy faollikni oshirish, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy himoya va mehnat huquqlari sohasida yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, boshqa xalqaro iqtisodchilar tomonidan o'tkazilgan tahlillar raqamli platformalarning mehnat bozorida jarayonlarini g'oyaviy va institutsional jihatdan ham izohlaydi. Masalan, tadqiqotlar raqamli platformalarning yengillatilgan mehnat bozorini shakllantirishi va mehnat bozorida transformatsiyani tezlashtirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ishchilarning ijtimoiy himoya imkoniyatlarini cheklaydigan "masofaviy bo'shliq"ni ham vujudga keltirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Nature Communications'da chop etilgan tadqiqot raqamli platformalarning avtomatizatsiya va algoritmli nazorat orqali ishchilarning saviyasi va mehnat bozorida statusiga ta'sirini tahlil qildi. Ushbu tadqiqot raqamli platformalar ishchilarning muzokara qilish qudratini zaiflashtiradi va ma'lumot asimmetriyasi orqali mehnat bozorida noqonuniylikni kuchaytiradigan tendensiyalarni ko'rsatdi.

Jamida xalqaro iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan fikrlar raqamli platformalarning mehnat bozorida ta'sirini ko'pqirrali tushuntirib beradi: ular iqtisodiy faollikni oshirish, kishilar uchun yangi bandlik shakllarini yaratish va mehnat bozori transformatsiyasiga xizmat qilish bilan birga, ishchilar huquqlari, ijtimoiy himoya va ish sharoitlarining barqarorligi kabi omillar bo'yicha yangi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkinligini ham ta'kidlaydi. Bu adabiyotlar tahlili maqolaning ilmiy asosini mustahkamlaydi va raqamli platformalarning mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi ta'sirining kompleks tabiatini ochib beradi.

Mahalliy olimlarimizdan Akademik Q.Abdurahmonov "Sun'iy intellekt davrida mehnat iqtisodiyoti" kitobida raqamli texnologiyalarning mehnat munosabatlariga qo'yayotgan yangi talablari haqida fikr yuritadilar.

Akademik Qalandar Abdurahmonov "Sun'iy intellekt davrida mehnat iqtisodiyoti" nomli darsligida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning mehnat munosabatlariga qo'yayotgan yangi talablari haqida quyidagilarni alohida ta'kidlaydilar.

SI va raqamli texnologiyalarni joriy etish mehnat munosabatlarini transformatsiya qilib, rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratmoqda va ayni paytda yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda:

1. Rutin vazifalarni avtomatlashtirish: SI texnologiyalari ko'plab operatsiyalarni avtomatlashtirish imkonini beradi, bu mehnat unumdorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Biroq, avtomatlashtirish ayniqsa, kam malaka talab qilinadigan sohalarda ish o'rinlarining qisqarishiga olib keladi. Bu ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini moslashtirishni talab qiladi.

2. Yangi kasblarning paydo bo'lishi: raqamli yechimlarni ishlab chiqish, joriy etish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq yangi faoliyat turlari paydo bo'lmoqda. Bu raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislarga bo'lgan talabni oshiradi va innovatsiyalarni rabatlantiradi.

3. Bandlikning moslashuvchan shakllari: raqamli platformalar va masofadan ishlash xodimlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, biroq ijtimoiy ximoya, mehnat kafolatlari va noan'anaviy bandlik shakllarini tartibga solishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Akademik Q.Abdurahmonov tomonidan belgilangan yangi raqamli talablar nafaqat nazariy jihatdan to'g'ri, balki amaliyotda ham o'z samaradorligini isbotlamoqda. Rutin vazifalarni avtomatlashtirish va yangi kasblarning paydo bo'lishi mehnat bozorida samaradorlik va innovatsiya imkoniyatlarini kengaytirayotgani aniq ko'rinadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning integratsiyasi ish beruvchilar va xodimlar uchun yangi strategik imkoniyatlar ochmoqda, ular mehnatni tartibga solishda raqamli platformalarning afzalliklarini amalda namoyon qiladi. Bu jarayon bandlikning moslashuvchan shakllarini va professional salohiyatni rivojlantirishni ta'minlaydi, shu bilan birga raqamli platformalarni milliy mehnat siyosatida samarali va zaruriy vosita sifatida qarash mumkinligini ko'rsatadi.

1 Nature Communications. (2025). Gig economy and its impact on individual employment: an empirical analysis – Digital labour worker implications.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayonida raqamli platformalarning o'rne va ta'sirini kompleks baholash maqsadida ilmiy tadqiqotning umumilmiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni tizimli yondashuv asosida amalga oshirilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida shakllanayotgan mehnat munosabatlari o'zaro bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori transformatsiyasi va platforma bandligiga oid ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi. Ilmiy tahlil jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning raqamli platformalar, gig-iqtisodiyot hamda noan'anaviy bandlik shakllari bo'yicha ilmiy ishlari o'rganildi va umumlashtirildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli orqali turli davlatlarda raqamli platformalar asosidagi mehnat munosabatlarini tartibga solish amaliyoti o'zaro solishtirildi. Ushbu usul raqamli mehnat munosabatlarining institutsional xususiyatlarini aniqlash hamda milliy mehnat bozori uchun mos mexanizmlarni belgilash imkonini berdi.

Normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida amaldagi mehnat qonunchiligi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda platforma bandligiga tegishli huquqiy normalar tahlil qilindi. Bu orqali raqamli platformalar faoliyatini tartibga solishda mavjud huquqiy bo'shliqlar va institutsional cheklovlar aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda statistik va tahliliy usullardan foydalanilib, raqamli platformalar orqali bandlikning rivojlanish tendensiyalari, mehnat munosabatlarining o'zgarish dinamikasi hamda masofaviy ish shakllarining kengayishi baholandi. Kontent-tahlil usuli orqali xalqaro tashkilotlar hisobotlari, analitik materiallar va raqamli mehnat bozoriga oid ilmiy manbalar mazmun jihatidan tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida deduksiya va induksiya usullari qo'llanilib, umumiy nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda raqamli platformalarning mehnat munosabatlariga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tizimli tahlil asosida raqamli platformalar ish beruvchi, ijrochi va davlat o'rtasidagi munosabatlarni transformatsiya qiluvchi institutsional mexanizm sifatida baholandi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi mehnat munosabatlarini raqamlashtirish jarayonini har tomonlama o'rganish, platforma bandligining iqtisodiy va huquqiy jihatlarini kompleks baholash hamda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda mehnat munosabatlarini tartibga solishda raqamli platformalarning faoliyati muhim institutsional transformatsiyani aks ettirdi. 2020-yil 1-yanvardan joriy etilgan Yagona milliy mehnat tizimi (YAMMT) mehnat munosabatlarini elektronlashtirishda birinchi samarali institutsional qadam bo'ldi. Ushbu platforma orqali mehnat shartnomalarini elektron tarzda ro'yxatga olish, xodimlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish va yagona bazaga jamlash imkoniyatlari yaratildi. Ilk yilda tizimda 463 700 dan ortiq ish beruvchi va 4.6 million xodimning ma'lumotlari qayd etildi. Bu raqamlar YAMMTning mamlakatdagi mehnat bozorida raqamlashtirishning keng qamrovini ta'minlaganligini ko'rsatadi.

2021-yilda YAMMT faoliyati huquqiy va texnologik jihatdan mustahkamlandi. Mehnat shartnomalarini elektron tarzda ro'yxatga olish va xodimlar faoliyatini nazorat qilish uchun platformaning asosiy modullari ishga tushirildi. Har yil platformalar orqali ro'yxatga olingan elektron shartnomalar bo'yicha to'liq jadvallar chop etilmagan bo'lsa-da, rasmiy ma'lumotlar faoliyatning barqarorligini tasdiqlaydi.

2022–2023-yillarda platforma faoliyati kengayib, uning institutsional va huquqiy asoslari mustahkamlandi. Vazirlar Mahkamasi raqamli mehnat munosabatlarini qonunchilik bilan mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qildi va elektron shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun nizomlar ishlab chiqildi. Bu jarayon YAMMTning barqaror va samarali faoliyat yuritishi uchun zamin yaratdi.

2024-yilda YAMMTning xizmatlari Elektron davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) bilan integratsiyalanib, fuqarolar va ish beruvchilar uchun elektron xizmatlardan tez va qulay foydalanish imkoni yaratildi. Bu raqamli mehnat bozorida samaradorlikni oshirish, administrativ xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifati va sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

1-jadval. O'zbekistonda raqamli mehnat platformalari orqali mehnat munosabatlarini tartibga solish bosqichlari (2020–2024)

Yil	Faoliyat bosqichi	Asosiy natija
2020	YAMMT joriy etilishi	463 700+ ish beruvchi, 4.6 mln xodim bazasi
2021	Funksiyalarni mustahkamlash	YAMMT modullari faoliyati
2022	Huquqiy bazaga kiritilishi	Elektron shartnomalar uchun nizomlar ishlab chiqildi
2023	Raqamli monitoring	YAMMT monitoring funksiyalari kengaydi
2024	Avtomatizatsiya va integratsiya	My.gov.uz orqali elektron xizmatlar



1-jadval O'zbekistonda 2020–2024-yillarda raqamli mehnat platformalari orqali mehnat munosabatlarini tartibga solishdagi muhim bosqichlarni ko'rsatadi. Tahlil shundan iboratki:

2020-yilda ilk bosqichda 463 700 dan ortiq ish beruvchi va 4.6 million xodimning ma'lumotlari platformaga kiritildi. Bu raqamli mehnat bozorini rasmiy elektron bazaga ko'chirishning birinchi va eng keng qamrovli qadami hisoblanadi. Shu bilan birga, platforma xodimlarning mehnat tarixini avtomatik yuritish va shartnomalarni elektron tarzda ro'yxatga olish imkoniyatlarini ta'minladi.

2021-yilda YAMMT modullari faoliyati huquqiy va texnologik jihatdan mustahkamlandi. Platforma xodimlar va ish beruvchilar uchun xizmatlarni barqaror ta'minlashni yo'lga qo'ydi. Bu bosqichda har yillik to'liq statistika rasmiy manbalarda chop etilmagan bo'lsa-da, faoliyatning samaradorligi va xizmat doirasi kengaygani qayd qilindi.

2022-yilda platforma uchun qonunchilik asosi mustahkamlandi. Elektron mehnat shartnomalarini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish uchun nizomlar ishlab chiqildi. Bu tadbir YAMMTning institutsional barqarorligini ta'minlab, mehnat munosabatlarini tartibga solishda huquqiy asoslarni mustahkamladi.

2023-yilda platforma monitoring funksiyalarini kengaytirdi. Hodimlar faoliyati va ish beruvchilar ma'lumotlarining nazorati va hisobotlari avtomatlashtirildi. Bu bosqich raqamli platformaning samaradorligini oshirib, mehnat munosabatlarini shaffof va barqaror yuritish imkonini yaratdi.

2024-yilda YAMMT xizmatlari Elektron davlat xizmatlari portali (My.gov.uz) bilan integratsiyalandi. Bu fuqarolar va ish beruvchilarga elektron xizmatlardan tez va qulay foydalanish imkonini berdi, administrativ xarajatlarni kamaytirdi va xizmat sifati hamda samaradorlikni sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda raqamli mehnat platformalarining 2020–2024-yillardagi institutsional transformatsiyasini aniq ko'rsatdi. 2020 yilda elektron mehnat daftari va YAMMTning joriy etilishi mehnat bozorida raqamlashtirishni belgilovchi muhim qadam bo'ldi. Bu jarayonning samarasi mehnat shartnomalarining elektron ro'yxatga olinishi va xodimlar faoliyati haqidagi ma'lumotlar bazasining barqaror shakllanishi orqali namoyon bo'ldi (Kun.uz, 2020).

2021–2023-yillarda platformalarning huquqiy va texnologik jihatdan mustahkamlanishi YAMMTning barqaror tadbirkorlik muhitida faoliyat yuritishini ta'minladi. Bu natija xalqaro adabiyotlarda qayd etilgan raqamli platformalarning mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari bilan uyg'un keladi. Ushbu davrda platforma samaradorligi, monitoring va nazorat funksiyalari orqali mehnat munosabatlarini tartibga solishning uzluksizligi ta'minlandi.

2024-yildan boshlab YAMMTning Elektron davlat xizmatlari portali bilan integratsiyasi fuqarolar va ish beruvchilar uchun xizmat sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Bu jarayon raqamli mehnat bozorini barqaror rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va administrativ xarajatlarni kamaytirishga xizmat qildi.

Biroq platforma orqali ro'yxatga olingan ko'rsatkichlarning to'liq dinamikasini rasmiy statistikada topish hanzuq qiyin, chunki har yillik ma'lumotlar jamlanib chop etilmaydi. Shu nuqtai nazardan, bu tadqiqot davlat statistikasida raqamli platformalar bazasini ochiq ma'lumotlar bilan ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida YAMMTning rivojlanishi O'zbekistonda mehnat munosabatlarini tartibga solishda raqamlashtirishning samaradorligi va davlat boshqaruvi bilan uyg'unligini namoyon qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 2020–2024-yillarda O'zbekistonda mehnat munosabatlarini tartibga solishda raqamli platformalarning muhim institutsional va texnologik transformatsiyasini aniq ko'rsatdi. Yagona milliy mehnat tizimi (YAMMT) ning joriy etilishi mamlakatda mehnat bozorini raqamlashtirishda ilk va muhim qadam bo'lib, 463 700 dan ortiq ish beruvchi va 4.6 million xodim ma'lumotlarini yagona elektron bazaga integratsiya qilish orqali samarali institutsional mexanizm yaratildi. Bu jarayon mehnat munosabatlarini tartibga solishda shaffoflik, nazorat va hisobotlikni ta'minlashga xizmat qildi.

2021–2023-yillar davomida platforma funksiyalarining huquqiy va texnologik jihatdan mustahkamlanishi YAMMTning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minladi. Elektron shartnomalar va xodimlar faoliyati haqidagi ma'lumotlar bazasi orqali platforma mehnat munosabatlarini uzluksiz nazorat qilish, monitoring qilish va xizmatlarning samaradorligini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga, platforma institutsional jihatdan ham davlat boshqaruvi va qonunchilik bilan uyg'unlashtirildi, bu raqamli mehnat bozorini huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

2024-yilda YAMMTning Elektron davlat xizmatlari portali (My.gov.uz) bilan integratsiyalanishi raqamli xizmatlarning barqarorligi va samaradorligini yanada oshirdi. Fuqarolar va ish beruvchilar elektron xizmatlardan tez va qulay foydalanish imkoniga ega bo'lib, bu administrativ xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mehnat bozorini raqamlashtirishda samaradorlikni oshirishga xizmat qildi. Shu nuqtai nazardan, YAMMT va uning integratsiya qilingan platformalari mehnat munosabatlarini tartibga solishda innovatsion va raqamli davlat boshqaruvi modeli sifatida ko'rinish berdi.



Shu bilan birga, tadqiqot yo'nalishi va jamlanma ma'lumotlar rasmiy statistikada to'liq chop etilmaganligi platforma samaradorligini qiyosiy tahlil qilishda ayrim cheklovlarni yuzaga keltirdi. Bu esa davlat statistikasida raqamli platformalar bo'yicha ochiq ma'lumotlarni kengaytirish va muntazam tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillarda YAMMTning rivojlanishi O'zbekistonda raqamli mehnat platformalarining samaradorligini, mehnat munosabatlarini tartibga solishda shaffoflik va qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu jarayon ilmiy va amaliy jihatdan raqamli platforma modellari, elektron mehnat shartnomalarini yuritish va davlat xizmatlarini integratsiyalash bo'yicha o'zbek tajribasining innovatsion samaradorligini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pilatti, G. R., Pinheiro, F. L., & Montini, A. A. (2024). Systematic Literature Review on Gig Economy: Power Dynamics, Worker Autonomy, and the Role of Social Networks. *Advances in Management Science*.
2. International Labour Organization. (2021). Gig economy and the world of work: the role of digital platforms – ILO overview.
3. Nature Communications. (2025). Gig economy and its impact on individual employment: an empirical analysis – Digital labour worker implications.
4. K.X.Abdurahmonov, N.Z.Kalandarovna. Suniiy intellekt davrida mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.Ilm-Ma'rifat nashriyoti. 2025 yil. 355 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>